




NAMANGAN VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**NAMANGAN VILOYATIDA  
SO‘G‘LIQNI SAQLASH  
SOHASINING  
ASOSIY STATISTIK  
KO‘RSATKICHLARI**  
*(2024- yil 1- yanvar holatiga)*






## **Statistik ko'rsatkichlar**

- ❖ **Sog'liqni saqlash statistikasi** – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'i, ularning holati va jihozlari, tibbiyot xodimlari), butun aholi va uning alohida kontingentlarining sog'lig'i holatini o'rganadigan statistika bo'limi; umumiy odamlar va uning alohida guruhlarini orasida kasallanishning tarqalishi, tuzilishi va chastotasi.
- ❖ **Tibbiyot muassasalari** – tarmog'iga barcha mulkchilik shaklidagi shifoxona va ambulatoriya, shoshilinch tibbiy yordam, ona va bola salomatligini muhofaza qilish kiradi.
- ❖ **Shifoxona o'rinlari** – statsionar davolash-profilaktika muassasa-laridagi (kasalxona, tug'ruqxona, shifoxona, ixtisoslashtirilgan dispanser va boshqalar) ma'lum hudud aholisiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan yotoqxonalar majmuasi. Bemorlarni tibbiy ixtisoslashtirish uchun barcha yotoq va yotoqxonalar bilan ta'minlash, qoida tariqasida, 10 ming kishiga hisoblab chiqiladi.
- ❖ **Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya muassasalarida**, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash institutlarida va hokazolarda ishlayotgan oliy tibbiy ma'lumotli barcha mutaxassislar kiradi.
- ❖ **Tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiy-sanitariya tashkilotlarida**, ijtimoiy ta'minot muassasalarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, mehribonlik uylarida va boshqalarda ishlaydigan o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.
- ❖ **Joriy yilda kasallik turi bo'yicha birinchi tashxis qo'yilgan bemorlar (holatlar) soni** – kasallanish darajasi bilan tavsiflanadi, uning darajasi birinchi tashxis qo'yilgan bemorlar sonining o'rtacha yillik aholi soniga nisbatan belgilanadi.




### **Namangan viloyatida shifoxona muassalari soni\*** *(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)*



Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassalari sonini qo‘shgan holda, 2024-yil 1-yanvar holatiga Namangan viloyatida shifoxona muassalari soni 118 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 2 taga oshgan.

### **Namangan viloyatida shifoxona muassalarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi <sup>1)</sup>** *(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)*



2024- yil 1- yanvar holatiga shifoxona muassasalari sonining eng katta qismi Namangan shahar (47 ta), Kosonsoy (14 ta ) va Pop tumanlarida (167 ta) to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko‘rsatkich Norin (2 ta) hamda Namangan (40 ta) tumanlarida kuzatilgan.


*\*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma‘lumotlarni qo‘shgan holda*



# NAMANGAN VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Namangan viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektini sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Namangan viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektini sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni 2024-yilda 80 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 2 taga (ya'ni 2,4 foizga) kamaygan.

## Namangan viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektini sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(2024 yil 1-yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko'p mulkchilik shakli bo'yicha, kichik tadbirkorlik (biznes) subyektini sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni Namangan shahrida (26 ta), Kosonsoy (13 ta) va Pop (10 ta) tumanlarida qayd etilgan, boshqa hududlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Notin (1 ta) hamda Mingbuloq (1 ta) tumanlarida kuzatilgan.



## Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalari soni\*


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Namangan viloyatida ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni yildan-yilga barqaror o‘sib bormoqda. Ularning o‘shishi 2020-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda 56,4% ni tashkil etdi.

## Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalarining hududlar kesimida taqsimlanishi\*

(2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko‘p Namangan viloyatida ambulatoriya - poliklinika muassasalari soni Namangan sh. (148 ta), Chust (54 ta) tumanida qayd etilgan, boshqa hududlar bilan solishtirganda, eng past ko‘rsatkichlar Davlatobod (5 ta) tumanida kuzatilgan.

\*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma’lumotlarni qo‘shgan holda




# NAMANGAN VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektii sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektii sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 309 tani tashkil etdi.

## Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektii sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Namangan viloyatida eng ko'p ambulatoriya poliklinikalari Namagna shahrida (121) va Chust timanida (36) kichik biznes subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.



## Namangan viloyatida shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni\*


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming birlik)



Aholi uchun shifoxona muassasalarida bemor o'rinlari soni barqaror o'sib bormoqda. 2024- yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 15,7 ming o'rinni tashkil qildi.

## Namangan viloyatida shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni hududlar kesimida\*

(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024- yil 1- yanvar holatiga Namangan viloyatida shifoxona o'rinlari soni 15654 o'rinni tashkil etdi. Shifoxona muassasalarida eng ko'p o'rinlar soni Namangan sh. 5069 o'rin, Chortoq 1382 ta o'rin hamda Chust tumanlarida 1131 ta o'rin kuzatilgan.

\*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




### **Barcha mutaxassisliklar bo‘yicha vrachlar soni\*** (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



2020-yil 1-yanvardan 2024-yilgacha Namangan viloyatida shifokorlar soni 5,3 ming kishidan 6,2 ming kishiga ko‘paydi.

### **Barcha mutaxassisliklar bo‘yicha vrachlar soni hududlar kesimida\*** (2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)



2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Namangan shahrida (2,9 ming kishi), Pop viloyatida (0,4 ming kishi) ro‘yxatga olingan. Chust tumanida 0,4 ming shifokor, Chortoq va Kosonsoy tumanlarida 0,3 ming shifokorlar mavjud .


\*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma‘lumotlarni qo‘shgan holda






# NAMANGAN VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Namangan viloyatida bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni 2020-yildan 2024 - yilgacha 0,6 mingdan 1,2 mingga oshgan.

## Namangan viloyatida bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni hududlar kesimida (2024- yil 1- yanvar holatiga, kishi)



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Namangan shahrida 449 kishi, Chustoq tumanida – 104 kishini hamda Chortoq tumanida – 94 kishini tashkil etdi.



## Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo'yicha taqsimlanishi \*

(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)

1,0	■	Namangan sh	■	1,9
0,1		Davlatobod		0,06
0,04		Yangi Namangan		0,04
0,1		Mingbuloq		0,2
0,1		Kosonsoy		0,2
0,1		Namangan		0,1
0,1		Norin		0,1
0,2		Pop		0,2
0,1		To'raqo'rg'on		0,2
0,1		Uychi		0,1
0,2		Uchqo'rg'on		0,1
0,1		Chortoq		0,2
0,2		Chust		0,2
0,1		Yangiqo'rg'on		0,1



Ayollar



Erkaklar

Namangan viloyatida shifokorlar bo'yicha gender taqsimoti aksariyat hududlarda ayollarning ustunligini ko'rsatadi. Ayollar va erkaklar orasida shifokorlarning eng ko'p soni Namangan shahrida qayd etilgan. Chust va Pop tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Eng kam shifokorlar Namangan va Mingbuloq tumanlarida.


\*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



# NAMANGAN VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Namangan viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni\*


(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)



Namangan viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni 2020 - yilda 30,1 ming kishidan 2024 - yilda 30,3 ming kishiga ko'paydi. Ushbu davrda o'sish 0,2 ming kishini tashkil etdi.

## Hududlar bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlari soni\*

(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




2024- yil 1 yanvar holatiga Namangan viloyatida eng ko'p faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari soni Namangan shahrida 11,0 ming kishi, Pop tumanida 2,2 ming kishini tashkil etmoqda.

\*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




## Namangan viloyatida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni\*

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



## Hududlar bo'yicha shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni\*

(2024- yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)




Bemorlarning aksariyati Namangan shahar (209,3 ming kishi), Pop (42,0 ming kishi) va Chortoq (38,4 ming kishi) tumanlarida shifoxonalarda davolangan. Eng kam ko'rsatkichlar Davlatobod (16,7 ming kishi) va Norin (17,2 ming kishi) tumanlarida qayd etilgan. Shuningdek Mingbuloq (18,1 ming), Namangan (26,5 ming kishi) va Uchqo'rg'on tumanlarida (26,8 ming kishi) davolangan.

\*Hududlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



**Namangan viloyatida kasalliklarning asosiy  
sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi  
(100 000 aholiga)**



<sup>1)</sup>Perinatal davrdagi bolalar

<sup>2)</sup>15-49 yoshdagi ayollar



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish  
statistikasi boshqarmasi**



**Namangan viloyati statistika  
boshqarmasi**



**e-mail: [info@namstat.uz](mailto:info@namstat.uz)**



**Manzil: 100170, Namangan sh.,  
N.Namongoniy ko'chasi, 14**



**[www.namstat.uz](http://www.namstat.uz)**



**Tel.: +99869 227-84-94**



**[facebook.com/namstat.uz](https://facebook.com/namstat.uz)**